Proceedings of International Educators Conference
Hosted online from Rome, Italy.
Date: 25th Dec., 2023
ISSN: 2835-396X Website: econferenceseries.com

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

# MADRASA TA'LIMOTINING ICHTIMOIY MADANIY HAYOTGA TA'SIRI

# THE IMPACT OF MADRASAH TEACHING ON SOCIAL AND CULTURAL LIFE

# ВЛИЯНИЕ УЧЕНИЯ МЕДРЕСЕ НА СОЦИАЛЬНУЮ И КУЛЬТУРНУЮ ЖИЗНЬ

Rustamova Gulnoza Rashid qizi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Samarqand filiali AKT 23.02-guruh talabasi
.

**ANNOTATSIYA:**
Movorounnahr mintaqasida Islom dining tarqalagan davri. Movarounnahr mintaqasida madrasalar ta'limotining tarqalishi va rivojlanishi. Movarounnahrdagi davlatlar Islom dinini qabul qilishi, Shuningdek diniy va dunyoviy fanlarning farqi va uyg'unligi.

**KALIT SO'ZLAR:** Islom dini, Islomning kirib kelishi, madrasa, Islom sivilizatsiyasi, Qur'on, Fiqih, Hadis, madrasa talimoti.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, arablar VII asrda Mavorounnahrga kirib kelishi natijasida, hozirgi O'rta Osiyo, xususan, o'zbek diyorini ham arablar o'z qo'liga oldi. Asta sekinlik bilan arablar o'z qadriyati, dini va qonunlarini joriy qila boshladilar. Arablar davlatni boshqarishda Qur'oni karim hamda hadisi sharifga tayangan holda boshqaradilar. Misol uchun, o'lkamizga islom dini kirib kelmasidan oldin, biz zardushtiylik dinida edik. Ta'lim jarayonlari esa toshga bitilib yozilar, o'qitilar edi, negaki u paytda qog'oz qimmat edi. Nisbatan ta'lim jarayonidan ko'ra, bizda tijorat va homashyoga bo'lgan e'tibor kuchli edi.[1]

Movarounnahrda Islom dinining rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Movarounnahr mintaqasida Islom dinining rivojlanishi bilan madrasalar va o'qitish tizimlari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu madrasalar Islomiy ilm fanlarini o'rgatish va o'qitish markazlari sifatida xizmat qilgan. Movarounnahr mintaqasidagi Islom

[1] IbinHavqal. Kamoliddin SH.S. Movorunnahir tarixi. Toshkent. 2011.Yil. 385bet.

ISSN: 2835-396X Website: econferenceseries.com

dinining rivojlanishi dini ilmning o'qitish metodi va usullarini o'z ichiga olgan. O'qitish usullari traditsionallikni saqlagan bo'lib, o'qituvchilar Islomiy ilm fanlarin sifatida o’rganishgan.[2] Islomiy ilm fanlari Movarounnahr mintaqasidagi madrasalarda asosiy o'qitish fanlari bo'lgan. Qur'on tilovati, hadislar, fiqh (Islomiy yurisdiksiya), usuliy fiqh (fiqh metodologiyasi), nahv (grammatika), sarf (lug'at), mantiq va boshqa Islomiy fanlar o'rgatilgan. Movarounnahrda islom uzil-kesil VIII asr boshida qaror topdi. Islom dinining O’rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko’p asrlik hukmronligining o’rnatilishi bilan bog’liq. O’rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643-644 yil atroflarida boshlangan bo’lsa ham, o’lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so’ng faqat arab qo’mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo’lishi oqibatida O’rta Osiyo ikki qismga bo’lindi: 1) Movarounnahr («Ikki daryo oralig’i») va 2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya’ni arablarga bo’ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o’z ta’sirini o’tkazdi. Abu Muslim (747-755) qo’zg’oloni davrigacha O’rta Osiyo islomdan oldingi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) o’z mavqelarini saqlab turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig’ish vazifalarini bajardilar. Movarounnahrda madrasalar tarixi va rivojlanishi. Movarounnahr mintaqasida madrasalar Islom dinini o'qitish, ilmiy faoliyatni rivojlantirish va ilm-fanlar sohasini oshirish maqsadida shakllangan o'quv institutlardir. Bu madrasalar Movarounnahr'da Islom dinining tarqalishi davrida katta ahamiyatga ega bo'ldi va ilmiy rivojlanishga olib kelgan. Madrasalar Movarounnahr mintaqasida 9-10 asrlardan boshlab shakllanib, 11-13 asrlarda rivojlangan. Bu darsliklar, Islom ilmiyotini o'rganish uchun zarur bo'lgan Qur'oni Karim, Hadislar, fiqh (shariat), tafsir (Qur'on tafsiri), usul al-fiqh (fiqhning asosiy qoidalarini o'rganish) va boshqa ilmiy fanlarni o'qitishga asoslangan. Madrasalar Movarounnahr mintaqasining intellektual rivojlanishiga ham muhim ta'sir ko'rsatdi. Ularning e'lon qilingan ilmiy darajalari, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi bilim almashinuvi Movarounnahr mintaqasidagi ilmiy faoliyatni rivojlantirdi. Madrasalar Movarounnahr xalqlarining Islom dinini o'rganish, tarqatish va ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

[2] Baxtiyor Hasabov. Tarix, Xujjatli Adabyot. Toshkent Islom Unversiteti. 2018.yil. 204-bet.



E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

Madrasalar tizimi va ulardagi o'qitish usullari. Madrasalar tizimi Movarounnahr mintaqasida Islom ilmiyotini o'rgatish va tarqatish maqsadida shakllangan o'quv institutlaridir. Ularda Islom dinining ilmiy fanlari, Qur'oni Karim, Hadislar, fiqh, tafsir, usul al-fiqh, lug'atlar, adabiyotlar va boshqa ilmiy asarlar o'qitiladi. Madrasalar o'qituvchilar va talabalar orasida bilim almashinuvi va ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun muhim markazlar bo'lgan. Madrasalarda o'qitish usullari o'rtacha darsliklardan farqli bo'lishi mumkin. O'qituvchilar Islom ilmiyotining asosiy manbalari asosida ta'lim berish, darsliklar va kutubxonalarda saqlangan ilmiy asarlardan foydalanish, ilmiy diskussiyalarga imkon berish va talabalarni amaliy amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Bu usullar Movarounnahrda madrasalar tizimida o'qitishning asosiy ko'nikmalari, Islom ilohiyot ilmi (islom diniy-falsafiy ilmi) kalom – yakka xudolik, tavhid, olam, borliq, inson ularning yaratilishi, mohiyati, mavjudligi, e'tiqod mazmuni, olamning, insonning o’zgarishi, tanqididir. Shu bois «At –tafsir al-Qur'on» ilmi dastlab kalomning tarkibiy qismi hisoblanadi. Kalom ilmini rivojlantirishda ajdodlarimiz munosib hissa qo’shdilar. Muhaddislik va fiqh sohalari kabi kalom ilmi borasida atoqli va daho olimlarni mutakallimlari yetishtirdi. Bu daho olimlardan Abu Mansur al-Moturidiy va Abul Mu'in an-Nasafiy nomlarini eslash kifoyadir.[3]

Movarounnahirda Islom dinining ijtimoiy hayotga ta'siri. Adolat va insof: Islom, adolat va insaf asosida kurashishni talab qiladi. Bu esa ijtimoiy tartibsizliklarning kamayishiga olib keladi va insonlarni adolatli davranishga, xalqaro qonunlarga va qoidalariga rioya qilishga rag'batlantiradi. Islomiy qoidalar va tamoyillar, insonlarning hukmronlikni insafiylik va adolat asosida amalga oshirishini talab etadi.

Ijtimoiy muhokama va shura: Bu insonlarning fikr va mulohazalarini birlashtirish, qonuniy hujjatlarga muvofiq maslahatlar berish, qarorlar olish va ijtimoiy muammoni jamoat bilan musharaxat qilish imkoniyatlarini yaratadi. Islomiy tarqalish davrida shuralar va ijtimoiy muhokamalar Movarounnahrda ijtimoiy hayotni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Xalqaro o'zaro hamkorlik: Bu mintaqada turli millatlar, tillar va madhiyalar orasida to'g'ri kelishish, xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalar o'rnatish Islom dinining asosiy tamoyillaridan biridir. Movarounnahrda savdo aloqalarining o'sishiga olib kelgan.

[3] B.B. Aminov. M.SH. Qidriniyozov. R.X.Sulaymonov. O’zbekiston Tarixi. Toshkent.2019-yil

ISSN: 2835-396X Website: econferenceseries.com

Islom dinida ilm o'rganish, bilimni yuqori qadr-qimmatga ega bo'lish va kelajakni loyihalash katta ahamiyatga ega. Islomda ilm fanlari o'rgangan, o'z bilimini boshqalar bilan ulashishni, ma'rifatni almashish va o'z fikrini ifoda qilishni rag'batlantiradi. Bu esa ijtimoiy hayotda ilmiy-tadqiqot, rivojlanish va kengayishga olib keladi.

Islom dinining jtimoiy-madaniy hayotga ta'siri shuningdek, uning boshqa yo'nalishlari ham mavjud. Bunda qabul qilingan amallar, adabiyot, san'at, madaniyat, ijtimoiy tizim va qonunlar hamda insonning shaxsiy rivojlanishiga e'tibor beriladi. Islom, insonlarga adolat, barobarlik, hurmat asosida yashash va ijtimoiy hayotni rivojlantirishga kata hissa qo'moqda.

Xulosa qilib aytganda Movorounnahrda Islom dining tarqalagan davri 7-8 asrlar bo'ylab davom etgan. Movarounnahrda madrasalar tizimini o'qitishning asosiy ko'nikmalari Islom ilohiyot ilmi (islom diniy-falsafiy ilmi) kalom – yakka xudolik, tavhid, olam, borliq, inson ularning yaratilishi, mohiyati, mavjudligi, e'tiqod mazmuni, olamning, insonlarning o'zgarishi, tanqididir. Shu bois «At –tafsir al-Qur'on» ilmi dastlab kalomning tarkibiy qismi hisoblanadi. Kalom ilmini rivojlantirishda ajdodlarimiz munosib hissa qo'shdilar. Muhaddislik va fiqh sohalari kabi kalom ilmi borasida atoqli va daho olimlarni mutakallimlari yetishtirdi. Bu daho olimlardan Abu Mansur al-Moturidiy va Abul Mu'in an-Nasafiy nomlarini eslash kifoyadir. Islom dinining ilmiy fanlari, Qur'oni Karim, Hadislar, fiqh, tafsir, usul al-fiqh, lug'atlar, adabiyotlar va boshqa ilmiy asarlar o'qitiladi.[4] Madrasalar o'qituvchilar va talabalar orasida bilim almashinuvi va ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun muhim markazlar hisoblanadi.

## FOYDALANGAN ADABYOTLAR RO'YXATI

1. A.XAdayatov. S. Gapurova. S.T. Hashimova. O'zbekiston Tarixi. 2013-yil. 634-bet.
2. B.B. Aminov. M.SH. Qidriniyozov. R.X.Sulaymonov. O'zbekiston Tarixi. Toshkent.2019.
3. S.A. Isxakamov. A.R. Raxmonov. Musulmon Huquqlari. Toshkent. 2012-yil. 177-b.
4. Yuldoshev O. va Toshmatov. 2015. O'zbekiston tarixi Navoiy Adabyoti.Toshkent 155b.

[4] S.A. Isxakamov. A.R. Raxmonov.Musulmon Huquqlari. Toshkent. 2012-yil. 177-b.

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

ISSN: 2835-396X Website: econferenceseries.com

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings
E- CONFERENCE SERIES

5 Ibin Havqal. Kamoliddin SH. S. Surat al-ard Movarunnahr Toshkent 2011-yil. 400-b.
6 G'afur G'ulom. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent sh.1983-yil. 127-b.
7 Sobir Elmurodov. Mustaqil O'zbekiston va Dunyo davlatlari. Toshkent. 2016-yil 364-bet
8 Ismoilov Alisher. O'zbekisto va Jaxon Tarix. 2017-bet. 208-b.
9 Sayyora Turdiyeva. Jaxon T arixi. 2019-yil. 180-bet.
10 Ozod Mo'minov. Hazrat Sayid Amir Kulol. Tarix Xujjatli Adabyot. 2012-y. 176-b.
11 www.Vikipedia.uz
12 www.adu.uz
13 Samarov K.Issues Naqishbandi teacging peace and harmony in society//Theoretical Applied Science 2 (2016): 175-179.
14 Samatov K (2016) Issues Naqishbandi teacging peace and harmony in society. "Theoretical Applied Science, (2) 175-179.
15 IbinHavqal. Kamoliddin SH.S. Movorunnahir tarixi. Toshkent. 2011.Yil. 385bet.